

Xayr, maktab – salom, oliygoh

Joriy yilning 25-may kuni Qarshi shahar 4-sonli umumta'lim məktəbində "Mening məktəbim – menin uyım" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri o'tkazıldı. Tadbırda TIQXMMI Qarshi filiali direktori Z.Muqimov, Chaqar MFY raisi, mahalla inspektorlari ishtirok etishdi. Tadbır ishtirokchilariga Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidə Xalq ta'limi tizimida ham katta islohotlar davri boshlanganligi, so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar, amalga oshirilgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan 5 ta muhim tashabbus asosida yoshlarni qiziqishlari va iste'dodini namoyish etish, jismoniy chiniqtirish, kompyuter savodxonligini oshirish, ularni ma'naviyatini yuksaltirish va ish bilan ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.



Tadbır doirasida 2020-2021 o'quv yilida fan olimpiadalari, ko'rik tanlov va sport musobaqalarida ishtirok etib, faxrli o'rirlarni egallagan hamda namunali xulq va a'lo baholarga o'qib, eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan iqtidorli bitiruvchilar rag'batlantirildi. Shuningdek, 11-sinf bitiruvchilari, ularning ota-onalari va pedagoglar o'zlarining samimiyl tilaklarini bildirishdilar.

**Matbuot xizmati rahbari Farrux Najimov axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**